

INTERAKTIV METODLAR ASOSIDA BOLALAR ADABIYOTI DARSLARINI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI

Mirzayeva Nigora Bozorovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti

nigorabozorovna810@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar adabiyoti fanini o'qitishda interaktiv metodlar asosida darslarni tashkil etishning pedagogik samaradorligi o'rganiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida interaktiv yondashuvlar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish, adabiy matnlarni tahlil qilishga bo'lgan faolligini kuchaytirish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari interaktiv metodlardan foydalanish bolalar tafakkuri va estetik didining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, interaktiv metodlar, samaradorlik, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv

Annotation: this article explores the pedagogical effectiveness of organizing classes based on interactive methods in teaching children's literature. In the modern educational system, through interactive approaches, it is important to increase the interest of students, strengthen their activity in the analysis of literary texts and form critical thinking skills. The results of the study show that the use of interactive techniques has a positive effect on the development of children's thinking and aesthetic taste.

Keywords: children's literature, interactive methods, effectiveness, critical thinking, creative approach

Kirish

XXI asrda ta'lim tizimi o'quvchining faol ishtirokini talab qiladigan, interfaol va kommunikativ yondashuvlarga asoslangan shaklga o'tdi. Bolalar adabiyoti fanida ham bu jarayon izchil tarzda kuzatilmoqda. An'anaviy uslublardan farqli o'laroq, interaktiv metodlar bolalarning faolligini oshirish, adabiy obrazlarni chuqurroq anglash, mustaqil fikrlash va baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola bolalar adabiyoti darslarida interaktiv metodlardan foydalanishning o'quv jarayonidagi samaradorligini tahlil qiladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot Toshkent shahridagi uchta turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga ega umumta'lim maktablarida amalga oshirildi. Maktablar tanlashda ularning innovatsion yondashuvlarga ochiqligi, pedagogik jamoaning ishtirokga tayyorligi va sinfxonalarning texnik jihozlanganlik darajasi inobatga olindi. Tadqiqotda 2–4-sinflar kesimida dars berayotgan 6 nafar tajribali adabiyot o'qituvchisi va taxminan 100 nafar o'quvchi ishtirok etdi. O'quvchilar 8 dan 10 yoshgacha bo'lib, ular adabiy matnlarni o'zlashtirish va shaxsiy munosabat bildirish bosqichida bo'lgan yosh toifasini tashkil etdi.

Tajriba 4 hafta davomida olib borildi. Ushbu davr mobaynida adabiyot darslari an'anaviy yondashuvdan farqli tarzda, maxsus ishlab chiqilgan interaktiv metodlar asosida tashkil etildi. Tadqiqotda quyidagi asosiy interaktiv metodlar qo'llanildi:

-“Aqliy hujum” (Brainstorming): Dars boshlanishida mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning mavjud bilimlarini aniqlash, ularda erkin fikr yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llandi.

-“Baliq skeleti” (Fishbone diagram): Asar voqealarini sabab-oqibat munosabatida tahlil qilish, qahramonlar harakatlariga baho berish uchun foydali bo‘ldi.

-“Rol o‘ynash” (Role play): Matndagi voqealarni sahnalashtirish orqali o‘quvchilar obrazlar tafakkurini chuqurroq angladilar, empatiya hislarini rivojlantirdilar.

-“Klaster tuzish” (Clustering): Asosiy g‘oyani aniqlash va unga oid tushunchalarni tarmoq tarzida ajratib ko‘rsatish orqali mavzuni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qildi.

-“Munozara” (Debate): Asarda yoritilgan ijtimoiy-axloqiy masalalar yuzasidan o‘quvchilarning nuqtai nazarlarini shakllantirish va ularni asosli himoya qilishga o‘rgatish uchun qo‘llanildi.

-“Savol-javob” (Q&A): Dars yakunida bilimlarni mustahkamlash, o‘quvchilarni o‘z fikrini aniqlik bilan ifodalashga undashda qo‘llanildi.

Har bir dars oldindan tuzilgan metodik tavsiyalar asosida rejalashtirildi va o‘qituvchilar tomonidan dars davomida sinchkovlik bilan kuzatildi. Dars yakunida esa o‘quvchilarning faolligi, mavzuni anglash darajasi, mustaqil fikrlashi va savol-javoblarda ishtiroki maxsus tuzilgan kuzatuv jadvali asosida baholandi. Baholashda yozma va og‘zaki fikrlar, o‘quvchilarning daftarlari, sahna chiqishlari va chizgan grafik-mavhum ifodalari tahlil qilindi.

Shuningdek, tajriba yakunida o‘qituvchilar bilan yarim strukturalangan intervyular o‘tkazildi. Intervyular orqali o‘qituvchilarning interaktiv metodlardan foydalanishdagi tajribasi, duch kelgan muammolari va o‘ziga xos yondashuvlari aniqlab borildi. Bu esa olingan kuzatuv natijalarini pedagogik qarashlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini berdi.

Ushbu yondashuv orqali olingan ma’lumotlar sifatli (qualitative) tahlil qilinib, umumlashtirildi va tajribaning samaradorlik darajasi aniqlanib, ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interaktiv metodlar qo‘llangan darslarda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi 60% ga oshgani kuzatildi. O‘quvchilar adabiy matnlarni tahlil qilishda faol ishtirok etgan, bahs-munozaralarda o‘z fikrini bildirishga intilgan. “Rol o‘ynash” metodida ular obrazga kirib, voqeani ichidan tushunishga harakat qilgan. “Aqliy hujum” metodida esa muammoli vaziyatlarga yechim topishga intilgan. Natijalarga ko‘ra, bu metodlar orqali o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalari sezilarli darajada oshgan.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bolalar adabiyotini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish nafaqat bilim olish jarayonini jonlantiradi, balki bolalarning adabiy-estetik dunyoqarashini kengaytiradi. Ular matn mazmunini chuqur anglay boshlaydi, muallif g‘oyasini his etadi va real hayot bilan bog‘lay oladi. Shu bilan birga, bu yondashuvlar o‘quvchilarning nutqiy faolligi va muloqot madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Biroq, interaktiv metodlar muvaffaqiyati o‘qituvchining tayyorgarligi, darsni puxta rejalashtirishi va darslikdagi mavzular bilan to‘g‘ri bog‘lanishiga bog‘liq.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyoti fanini interaktiv metodlar asosida o‘qitish o‘quvchilar bilimini chuqurlashtirish, ularning adabiy tafakkuri va qiziqishini oshirishda samarali vositadir. Bu metodlar darsni jonli, maqsadli va mazmunli o‘tkazishga imkon beradi. Kelgusida o‘qituvchilarni interaktiv metodlar bo‘yicha malakasini oshirish, darsliklarga metodik qo‘llanmalar qo‘shish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyoqulov N.X, Musayeva N.N. “Yangi pedagogic texnologiyalar” darslik 15-20b.
2. N.A.Muslimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” o`quvslubiy majmua. Toshkent: 2016. 30-31b.
3. Рахматов, Марат Салимович, Мавлуда Сайфиддиновна Норова, Исмат Худойкулович
4. Давлатов. "ПРОБЛЕМЫ ПЕРСПЕКТИВНЫХ МАТЕРИАЛОВ ДЛЯ ТЕХНИКИ И
5. ТЕХНОЛОГИИ." Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации. 2014